

“DEVONU LUG‘ATI-T- TURK”DA TABIAT HODISALARI O‘SIMLIKLAR NOMINING AKS ETISHI

D. A. Begmatova

TIPI, Tillar va maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug‘ati-t- turk” asaridagi maqollar mazmun-mohiyati to‘g‘risidagi fikrlar yoritilgan. Asarda keltirilgan 300ga yaqin maqollarning ma’lum qismida o‘simliklar nomi va tabiat hodisalari aks etgan. Tabiatdagi hodisalar yordamida odam va olamga oid hayotiy yoqealar ochib berilgan. Maqolada mana shunday maqollarning o‘ziga xos ramziy xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiy xalqlar,maqollar, dangasalik, botir, fazilat, nuqson,aql, tirishqoqlik.

Asrlar davomida yashab kelayotgan maqollarimizda buyuk, lekin oddiygina haqiqat yashiringan. Tarixdan bizning zamonamizgacha yetib kelgan hikmatlar xalqning hayot tajribasidan kelib chiqqan haqiqatdir. Maqollarda butun bir kitoblarga teng chuqur ma’no bor. Har bir xalq asrlar davomida katta hayotiy tajriba to‘playdi va shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. O‘zbek xalqining asrlar davomida hayotiy tajribasi bebaho va hozirgi zamonaviy dunyoda ham as qotadi. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg'ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Qoshg'ariy maqollarida tabiat tasviri, o‘simliklar olami ramziy o‘xshatishlar orqali ochib berilgan.

A:y tolun bolsa, eligin imlāmās-To‘lin oyni qo‘l bilan ko‘rsatilmaydi. Chunki u har kimga aniq ko‘rina beradi.(46b) To‘lgan oy tun qorong‘usini yoritganda butun yer yuzi munavvar bo‘ladi. Tabiatning bu mo‘jizasi har doim ham kuzatilmaydi. Ma’lum muddatlarda sodir bo‘ladi. Hayotda esa aniq ko‘ringan narsalarni yana ta’kidlash shart emas ekanligi maqolda ochib berilgan.

Tünlä bulit örtänsä,

Ewlüg urı keldürmişcä bolur,

Taŋda bulit örtänsä,

Ewkä yaġı kirmişcä bolur

Kechqurun bulut qizarsa xotin o‘g‘il tuqqandek, ertalab bulut qizarsa, yov uyga kirgandek bo‘ladi (108b) Bu maqolda ham osmonda ro‘y beradigan tabiat hodisalari haqida so‘z boradi. Tunda bulut qizil rangda bo‘lishini xotinlarni o‘g‘il tug‘ishiga, tongda bulut qizarishini esa yurtga dushman kirishiga qiyos qilingan. Shoir tabiat o‘zgarishlarini mohirona tashbehlar orqali tasvirlagan.

Tag'ig oqruqin egmas, tejizni qayg'iqin bukmas Tog' arqon bilan egilmaydi, dengiz qayiq bilan bekilmaydi.(53b) Ushbu maqolda tabiat manzaralaridan tog' va dengiz haqida fikr yuritiladi. Tog' egilmagani kabi dengizni ham qayiq bilan yopib bo'lmaydi. Insonlar harakteriga qiyos qilinsa to'g'ri odamni noto'g'ri yo'lga boshlab bo'lmaydi. Odam hayoti davomida qilgan ishlarini yashirib bo'lmaydi.

Otuğ uđguç birlä öcürmäş - O'tni alanga bilan o'chirilmas/

to'polonni[fitnani] to'polon[fitna] bilan emas, sulh bilan bostirish mumkin (84) Olov alanga bilan o'chirilmaydi, urush-jangal, notinchlik mug'ombirlik, ayyorlik bilan tinchitilmaydi, balki kelishuv, murosas yo'llari bilan bartaraf qilinadi.

Arpasiz at aşumas, arqasiz alp çerig siyumas Arpasiz ot qir

osholmaydi, yordamchisiz yigit (bahodir) jangda yenga olmaydi (63b) Bu maqolda donli o'simliklardan biri bo'lgan arpa tilga olingan. Ot-ulovlar qornini to'ydirish uchun arpa-bug'doylardan foydalangan.Qorni och ot tog'ni oshib o'tolmaganidek, jangda yolg'iz jangchi yovni mag'lub qila olmaydi.

Kümüş күnkä urşa, altun ađaqin kelir Kumush quyoshga qo'nsa, oltin o'z oyog'i bilan keladi Bu maqolni ma'lum maqsadni amalga oshirish uchun pulni ayamay sarf qilishga aytiladi (80) Inson bir maqsadga erishish uchun o'zidagi barcha imkoniyatlarni qo'llash kerakligi hech narsani ayamasligi ko'zda tutiladi. Qachonki bir narsadan vos kechsagina bir yutuqqa, natijaga erishish mumkin.

Yığaç uçña yel tegir, körklig kişikä söz kelir Daraxt uchiga shamol, yumshoq odamga so'z etadi (132b) Bu maqolda tabiat hodisasi bo'lgan shamol daraxt uchini qinirlatadi yoki sindirishi ham mumkin. Tabiati muloyim, yumshoq insonlar hayotda ko'p qoqiladi. Joxil kimsalardan zarar ko'radi. Huddi shamol daraxtni sindirganidek.

Sögüt sülinä, qadın qasın –Tol daraxtidagi xo'llik va mayinlik tolning o'ziga yarashiq, qayin daraxtining qattig'ligi uning o'ziga munosib (144b)

Ushbu maqolda ham daraxt turlari tilga olingan. Har bir daraxt xususiyati o'ziga mos. Tol xo'l va mayinligi, qayin daraxti qattiqligi bilan tabiatda o'z o'rniga ega. Insonlar ham olloh tomonidan takrorlanmas qilib yaratilgan. Shoir bu maqolda shunga ishora qilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati-t- turk" asarida maqollarning juda katta xazinasini jamlagan. Ularning ba'zi qismida o'simliklarning nomlari ishtirok etgan. Ayni mana shu maqollar yaratilishiga ko'ra ancha qadimiydir. Zero, inson dastlabki jiddiy hukmlarni tabiatga, tabiat hodisalariga, o'simlik va tabiat olamiga qarab chiqargan. Tabiat bilan bog'liq maqollarning katta qismi o'zining majoziy ma'nolari bilan e'tiborni tortadi. Ular ayni paytda kishilik jamiyatiga xos bo'lgan ko'plab axloqiy-ma'naviy hodisalarning mazmun va mohiyatini aniqlashda, ularni aniqroq tasavvur etishda, amaliyotda qo'llash jarayonida yanada katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Qoshg'ariy, Mahmud. Devonu lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni).S.Mutalliboyev tarjimasi asosida qayta ishlangan, to'ldirilgan, o'zgartishlar kiritilgan mukammal nashr. Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov.–Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017. –488b.
2. Xudoyberdiyev J. M.Qoshg'ariy hayoti va “Devonu lug'otit turk” bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatgichi, –T.: Akademnashr, 2011.
3. “Devonu lug'atit turk” indeks-lug'at. Toshkent: Fan, 1967.
4. Elbek Ro'ziyev “ Devon”da yashayorgan hikmatlar Toshkent – 2019
5. «Tafakkur» nashriyoti.